

MAKTAB O'QUVCHILARIGA QALAMTASVIRNI O'RGATISH VA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xolmirzayeva Fazilatxon Obidjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

E-mail: xolmirzayevafazilat5@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga qalamtasvirni o'rgatish va zamonaviy texnikalardan foydalanishni o'ziga xos xususiyatlari haqida gap boradi. Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning tasviriy san'at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi*

***Kalit so'zlar:** San'atga etibor, qalamtasvirning o'rni, tasviriy san'atni o'qitish, texnologiya, tasviriy san'at, rassomchilik, borliq, natura, zamonaviy texnologiya, metodika, fikrlash va axborotni qabul qilish, master - klass.*

***Аннотация:** В данной статье говорится об особенностях обучения школьников рисованию карандашом и использованию современных методик. В современных условиях, когда масштаб необходимых человеку знаний расширяется, невозможно ограничиться освоением определенного набора фактов. Поэтому необходимо научить студентов самостоятельно пополнять и обогащать свои знания, концентрировать свое внимание на наиболее важной научной и политической информации. Эта задача требует расширения и развития занятий школьников изобразительным искусством в постоянной связи с учебным процессом.*

***Ключевые слова:** Внимание к искусству, роль карандашного рисунка, преподавание изобразительного искусства, технология изобразительного искусства, живопись, существование, природа, современная техника, методика, мышление и получение информации, мастер-класс.*

Abstract: *This article talks about the peculiarities of teaching pencil drawing to schoolchildren and the use of modern techniques. In today's conditions, where the scale of necessary knowledge for a person is expanding, it is impossible to limit oneself to mastering a certain set of facts. Therefore, it is necessary to teach students to fill and enrich their knowledge independently, to focus their attention on the most important scientific and political information. This task requires the expansion and development of students' visual arts lessons in a continuous connection with the educational process.*

Key words: *Attention to art, the role of pencil drawing, teaching of fine art, technology, fine art, painting, existence, nature, modern technology, methodology, thinking and receiving information, master class.*

“Tasviriy san’at” fanining asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga borliqni, tabiatdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishga, his etishga, ranglar tuslarini ajrata bilishga, fazoviy tasavvurlarga ega bo‘lishga, xotirani rivojlantirish hamda kuzatuvchanlik hissiyotini shakllantirishga, tasviriy san’at asarlarini to‘g‘ri talqin qilib maqsadni anglashga va talabalarni badiiy, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish bilan birgalikda ma’naviy yuksaklikka undashdan iboratdir.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va manaviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olishida ijobiy natijalar bermoqda. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” muhim tarixiy hujjat bo‘lib, unda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, bu tizimni dunyoning ilg‘or, demokratik davlatlari darajasiga yetkazish va yosh kadrlarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda, chuqur bilim egasi qilib tarbiyalash maqsadi qo‘yilgan.

Keyingi vaqtda boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, oliy ta’lim tizimida ham ko‘pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogika oliy o‘quv yurtlarining badiiy grafika fakultetlarida yosh pedagog-rassomlarni tayyorlash bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari, yangi o‘quv rejalari, dasturlari tuzulmoqda, o‘quv qo‘llanma, darslik va metodik tavsiyalat yaratilmoqda. Respublika oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarga milliy san’at namunalarini o‘qitishning ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarga milliy san’at namunalarini o‘qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab, voyaga yetkazish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san’at, xususan, qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo‘lishini taqozo etadi, pedagog, olim va rassomlar zimmasiga yuksak mas’uliyat yuklaydi.

Qalamtasvir predmeti badiiy grafika fakultetlarida Maktab o'quvchilariga tasviriy san'atni o'rgatish uchun eng avvalo qalamtasvirni o'rgatish zarur. Albatta tasviriy san'at nafis san'at turidir. Zamonammiz rivojlanib bormoqda, yosh avlodlar nafaqat biz ham zamonaviy texnologiyalarsiz kelajakni tasavvur qilishimiz qiyin. O'z o'rnida bu bizga yana ham qulayliklar yaratib beradi.

Insoniyat aqli va fikrini o'sishida tasviriy san'at fanining o'rnini beqiyosdir. Tasviriy san'at juda qadim zamonlardan shakillana boshlagan va keng tarqalgan san'at turi hissoylanib, bularning orasida qalamtasvir alohida o'ringa egadir. Chunki, qalamtasvir - tasviriy san'at fanining asosi hissoylanadi.

Shu nuqtai-nazardan bugungi kunda maktablarda o'quvchilarga tasviriy san'at birinchi sinfdan o'rgatiladi. Bu o'rgatish jarayoni o'quvchining qo'liga qalam tutishning to'g'ri usullarini o'rgatishdan tortib, rasmni chizishga bo'lgan qiziqishlari natijasida bu sohaga yanada chuqurroq kirishlariga va o'zlarining dunyo qarashlariga monand bir shakilda qiziqtirib jarayon o'rgatib boriladi.

Zamonaviy taraqqiyot, globallashuv insoniyat ongiga ko'plab yangicha hayot tarzi qonun- qoidalarni olib kirmoqda. Ko'plab ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, hozirgi zamon talablarini tasviriy san'at muammolari bilan tanishtirishda XXI asr bo'sag'asida axborotlarning haddan ziyod ko'payganligi, ta'lim sohasining butunlay o'zgartirishni talab etmoqda. Dunyo bo'yicha elektron madaniyat, jaxon texnologik timsollari va belgilari zamonida yashayotgan o'quvchining qabul qilish qobiliyati tubdano'zgardi. O'qituvchi o'quvchi bilan mukammal muloqotda bo'lish uchun esa zamonaviy metodika va yangi texnologik bilimlar majmui bilan qurollangan bo'lishi talab etiladi. Shunday texnologiyalardan biri o'qituvchining ish jarayonida „integratsion media“ bilim sistemasi hissoylanadi. O'quvchini „elektron muhitda“ o'zini qanday xis qilish, uni o'qish tajribasi axborotlarni taxlil qilish va qayta ishlash har xil manbalardan olinayotgan ma'lumotlarni tanqidiy anglash hozirgi zamon ta'limi oldidagi muhim vazifalardan biridir, desak yangilishmaymiz.

Bu borada zamonaviy badiiy ta'lim sistemasining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi ushbu yangi maqsad va vazifalarni takidlab o'tishimiz joizdir:

-talabaning zamonaviy ijtimoiy – madaniy muxitga moslashuvi;

-o'quvchi yoshlarning umumiy ta'lim mazmunini anglashda va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida zamonaviy umumta'lim va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;

-o'quvchilarning bilim darajasini kengaytiruvchi mashg'ulotlar tizimida media bilan texnologiyalarini integratsiyalash.

Hozirgi zamonda yosh pedagoglardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarni tasviriy san'at sohasiga qiziqishlarini yanada orttirish bo'yicha talablar qo'yilmoqda.

Hozirgi kunda madaniyat yuksalishining asosiy tendensiyalaridan biri – bu madaniyat turlarining bir -biriga o‘tishi va singib ketishiga bo‘lgan intilishidir. Bu jarayonga ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi katta tasir ko‘rsatmoqda. Axborot qabul qilish jarayoni tezlashgani esa albatta bu haqiqatdir. Hatto “Klipcha fikrlash”, “Master – klass” termini ham paydo bo‘lgan. “Master -klass” darslarida o‘quvchi o‘qituvchining ijodiy ish jarayoni bilan bevosita vizual tanishish va o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shuning natijasida zamonaviy o‘quvchilarning assotsiativ fikrlash, tasavvur qilish, badiiy tarzda his etish holati rivojlanadi.

Multimediya prezentatsiyasi - taviyiy san’at darslarida “master-klass” prezentatsiyalari o‘z tarkibiga animatsiya, audio va videofragmentlarini jamlagan elektron diafilmlar, interaktiv elementlar–namoish etilayotgan materiallar taqdimotning eng keng tarqalgan turidir.

Kompyuter yordamida ham multimediya proektsion ekranlar yordamida ham multimediya prezentatsiyalarini yangi mavzuning va darsning xoxlagan bosqichida ishlata bilish maqsadga muvofiqdir.

“Power point” dasturi imkoniyalaridan foydalanish ham o‘z navbatida, darslarni qiziqarli va sermazmun tashkil etishga bevosita yordam beradi. Masalan:

- tasviriy san’at janrlari bilan tanishtirish darslarida;
- rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirib o‘tishda;
- ranglarni to‘g‘ri qo‘llash texnikalariga doir video ro‘liklar namoish etishda;
- Tasviriy san’at turlari, Jahon muzeylari, manzarachi rassomlar kabi tasviriy san’at mavzularini o‘rganishda.

Shu borada aytib o‘tish joizki maktablardagi 8-9- sinflardagi Chizmachilik darslarini ham kompyuter texnologiyalarida foydalanilgan holda dars o‘tishni yo‘lga qo‘yishimiz zarur deb o‘ylayman. Bu zamonaviy o‘quvchilarni bilim olish darajalarini kengaytiribgina qolmay balki darsga qiziqishlarini oshirgan bo‘lar edi. Bu borada bizga yosh mutaxassis kadrlarimiz “AUTO CAD” hamda “3D MAX” dasturini chuqur o‘zlashtirishlari va o‘quvchilarga yetkazib bera oladigan darajada bilimga ega bo‘lishlari lozim.

Yuqorida aytib o‘tilgan darslarni tashkil etish o‘qituvchidan ham kompyuter texnikasidan foydalana olishni talab etadi. Natijada u o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini o‘stira oladi.

Barchamizga malumki hozirgi zamonaviy o‘quvchilarimiz tasviriy san’at va chizmachilik fanlariga qiziqishlari anchagina pasaygan. Kompyuter texnologiyalari rivojlangan zamonaviy davrda o‘quvchilarga rasm chizishni yana ham qulay usullari borligi va boshqa davlatlar rassomlari chizgan asarlari va ularni texnikasini o‘rganishga

zamonaviy texnologiyalarimiz katta keng yo‘l ochib beradi va darslarni qiziqarli va sermazmun o‘tibgina qolmay balki tushunarliroq o‘tilishiga yordam beradi.

Pedagogikadagi kuzatish metodi o‘qituvchi uchun eng qulay metod. Bolaga etibor bersangiz unga bilim berishning eng qulay usullarini ko‘rasiz. Bola hatti harakatlari, gap so‘zlari bilan o‘zining qabul qilish darajasini oshkor etadi. Bolani rag‘batlantirish hamda kompyuter texnologiyalari rivojlangan davrda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlariga imkon berishimiz zarur. Chunki tasviriy san‘at kuzatish orqali rivojlanadi. Bir asarni chizishdan oldin uni chizish texnikasini bilish kerak.

Uyg‘onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchi “Rangtasvir qonunlari” nomli asarida takidlaganidek, yoshlar o‘zlarini ilm- fan, tasviriy san‘atda sinamoqchi bo‘lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.

Tasviriy san‘at fanini o‘rganish uchun dastlab qalamtasvirni yaxshi bilish zarur. Qaysi bir yo‘nalishda ijod qilmang eng avval Qalam tutishni o‘rganish kerak. Rassom o‘zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chiziqlar bilan ifodalaydi. San‘at asarini yaratishda ushbu qoramalar rassomga yordamchi manbaa bo‘lib hizmat qiladi.

Rassom u yoki bu asarni yaratishni qalamda chizish bilan boshlaydi. So‘ngra asosga rang beriladi va u tomoshabinga estetik zavq bag‘ishlaydi. Qisqa qilib aytganda rassom o‘z asarini qalamtasvirsiz mukammal holga keltira olmaydi. Qalamda chizilgan chiziqlar rassomning mohirligi bilan asarga aylanadi.

Fransuz rassomi va memori Le Korbyuze shunday degan edi: *“Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o‘shishini, gullab – yashnashini ko‘rasan. Bu borliqni kuzatish, avvalo buyumlarning „ichki“ dunyosini, so‘ngra „tashqarisini“ o‘rganish natijasida amalga oshiriladi.... Buyumning haqiqiy go‘zalligini, avvalo, tashqarisiga e‘tibor berib, so‘ngra chizish davomida idrok etamiz. Tasvirlash – kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir”*.

Qalamni to‘g‘ri tutish va chiziqlarni to‘g‘ri harakatlantirish orqali ijodkor asardagi detallarni to‘laqonli jonlantira oladi. Asardagi detallarga o‘z yo‘malishi bo‘ylab chiziqlar tortilsa, detalning qanday ekanligini, (gips, mis, shisha, yog‘och v.h lar) anglatish mumkin. Qalamtasvirda ijod qilgan rassomlar asarlarni shunday mohirona ishlaydilarki asardagi buyumlarning ranglarini ham bilish mumkin. Buyumga chiziqlarini berishda och yoki to‘q tortish orqali ranglarni aks ettirish mumkin. Buyumlarni tasvirlash san‘ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so‘z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki Respublikamizda bugungi kunda san‘at va badiiy ijod orqali yoshlarimizning ruhiyati, ma‘naviy dunyosini shalillantirish

muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Hozirda yurtimizda har bir soha qatorida madaniyat va san'at sohalariga ham davlat siyosati darajasida etibor berilmoqda. Maktablarda tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini samarali va sermazmun o'tish bo'yicha yosh mutahassislarimiz pedagogik metodlar qo'llashlari zarur. Zamonaviy yoshlarimiz texnologiya rivojlangan bir davrda yashar ekan texnologiya va axborotni qabul qilishi va uni taxlil qilishi tezlashgan. Shu bois maktablarda o'quvchilarga tasviriy san'at va chizmachilikni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o'tish, darsni sermazmun va tushunarli bo'lishi uchun katta hissa qo'shadi.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib – kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir. Tasviriy san'at fani o'quvchilarni his qilish va idrok etishga undaydi. Shuni ham aytib o'tishimiz kerakki maktablardagi tasviriy san'at va chizmachilik fanlari uchun ham 45 daqiqa vaqt belgilangan, bu vaqt o'quvchilarni erkin ijod qilishlariga yetarli emas. O'quvchilarni qiziqishiga qarab ularni darslardan tashqari to'garaklarga jalb qilish va ularga zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xolda dars o'tish kerak. Chuqurlashtirilgan mashg'ulotlar o'quvchilarni erkin ijod qilishlariga yo'l ochib beradi. Kompyuter texnologiyalari bu fanni nazariyasini o'rganishni mukammallashtirib va tezlashtirib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2 jildli, 1-jild, T., 1986.
2. Azimova B.Z. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar. T., 1989.
3. S.Abdurasulov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T., 1996.
4. Botir Boymetov „Qalamtasvir“ Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – T/: Musiqqa, 2006- 216 b